YO‘L HARAKATINING MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHDAGI MASALALLARNING TAHLILI

Musurmonova Zumradxon Zoyir qizi
Sharof Rashidov tumani 2-son Politexnikumi “ICHTU”
E-mail: zumradxonmusurmonova@gmail.com

Qabul qilindi: 01.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 02.11.2025
Tasdiqlandi: 03.11.2025

Kalit so’zlar:
yo‘l harakati xavfsizligi, transport tizimi, avariya sabablari, yo‘l infratuzilmasi, boshqaruv tizimi, intellektual transport tizimi, monitoring, svetofor boshqaruvi, transport oqimi, profilaktika, inson omili.


Annotatsiya. Mazkur maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Hozirgi davrda transport vositalari sonining ortishi, yo‘l infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda inson omiliga bog‘liq xatolar yo‘l-transport hodisalari sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotda yo‘l harakati tizimining asosiy tarkibiy qismlari – haydovchi, transport vositasi, yo‘l va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar o‘rganilgan. Shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligini boshqarishning zamonaviy usullari, intellektual transport tizimlari (ITS), video monitoring va svetoforlarni avtomatik boshqarish tizimlarining samaradorligi tahlil etilgan. Natijada yo‘l harakatidagi muammolarni kamaytirish uchun tashkiliy, texnik va tarbiyaviy chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari transport oqimining samarali boshqaruvi, avariya xavfini kamaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022 yildagi PQ-190-son “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida keltirib o‘tilgan 2022 - 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘ligini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2022 yildagi PQ-316-son qarorida “2022 - 2026 yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish

tizimini raqamlashtirish, chorrahalardagi svetofor obyektlarini markaziy boshqaruv tizimiga integrasiya qilib, yagona raqamli boshqaruv tizimini joriy qilish bo‘yicha belgilangan topshiriqlarni bajarishda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston Yevroosiyo materigining markazida, dengiz va okeanlardan uzoqda, shimoliy yarim sharqning subtropik zonasida joylashgan bo‘lib, mamlakat hududining deyarli 4/5 qismi O‘rta Osiyoning keng cho‘llari va yarim cho‘llarida joylashgan. Janub va sharqda tog‘ tizmalari bilan chegaradosh. Tog‘li hududlar mamlakat hududining deyarli 22% ni egallaydi.

Respublika iqtisodiyot tarmoqlarini avtomobillashtirish va rivojlantirishi yuk tashish intensivligini tez sur’atlar bilan o‘sishiga olib keladi. Ko‘p hollarda mazkur respublikamiz hududidagi yo‘llar avtotransport vositalari harakati talablariga javob bermaydi deb hisoblanadi. Bu esa transport vositalarining samaradorligining pasayishiga va baxtsiz hodisalarning ko‘payishiga olib keladi. Murakkab tog‘li relefidagi yo‘l sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlari ularning transport vositasi ekspluatatsiya xususiyatlariga, haydovchilarning mehnat sharoitlariga va harakat xavfsizligini ta’minlashga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda respublikamiz hududida joylashgan tog‘li yo‘llarda avtomobillarning xavfsizligini ta’minlash dolzarb va muhim masala bo‘lib qolmoqda. Tog‘li hududlarning o‘ziga xos tabiiy-geografik sharoiti avtomobil harakati uchun ko‘plab xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, nishablar, keskin burilishlar, tor yo‘llar, balandlikdagi bosim o‘zgarishlari, noqulay ob-havo sharoitlarini avtomobillarni boshqarishini qiyinlashtiradi va yo‘l-transport hodisasilar xavfini yanada oshiradi. Bu borada respublikamiz olimlaridan A.A. Eshanbabayev o‘zining “Tog‘li yo‘l sharoitida transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash” nomli ilmiy maqolasida O‘zbekiston Respublikasi yo‘llarining tog‘li hududlarida transport vositalarining harakatlanish xususiyatlari, transport oqimlarining intensivligi va tarkibi, yo‘l sharoitlarining xususiyatlari, yo‘l-transport hodisalari tahlil qilingan.



1.1-rasm “Avtomobil – haydovchi – yo‘l – piyoda - muhit” tizimi

Yo‘l harakatining muammolari va maxsus tomonlari, eng avvalo, “avtomobil-haydovchi-yo‘l-piyoda” tizimi hamda HAYPM kompleksi bilan belgilanadi. Mazkur majmua yo‘l-transport hodisalarining sabablarini o‘rganish va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish choralarini tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yo‘l harakati xavfsizligiga ta’sir qiluvchi o‘zaro bog‘liq omillar soni ko‘p hisoblanadi. Umumiy olganda, optimal sharoitlarning ta’siri kompleksning tarkibiy qismlari orqali o‘z aksini topgan.

Hozirgi vaqtda barcha yo‘l-transport hodisalari uchta katta guruhga bo‘linadi: inson omili bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar (haydovchilar, piyodalar, velosipedchilar, mototsiklchilar, yo‘lovchilar tomonidan yo‘l harakati qoidalarini buzish); avtomobillarning texnik nosozliklari tufayli sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar; yo‘l infratuzilmasining noqulay sharoitlari tufayli baxtsiz hodisalar (yo‘lning harakatlanish qismidagi notekisliklar, tog‘li yo‘llarning geometrik parametrlari, harakatni tashkil etishdagi kamchilik va muammolari).

Yo‘l-transport hodisalarining yuzaga kelishiga turli omillarning ta’sirini baholash uchun statistik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali kutilgan natijaga erishishning imkoni yo‘q. Shu sababli ham multifaktorial tahlil usuli foydaliroqdir. Bu “haydovch - avtomobil - yo‘l-piyoda - muhit” tizimiga kiritilgan elementlarning har birining ishonchliligini miqdoriy baholashni topish imkonini beradi. Bugungi kunda yo‘l-transport tizimi har qanday davlatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Transport vositalari sonining ortib borishi, infratuzilmaning murakkablashuvi hamda aholining harakatlanish faolligining oshishi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda.

Harakat xavfsizligi darajasi tizim konsepsiyasiga kiritilgan quyidagi asosiy omillarning o‘zaro ta’sirining ishonchliligiga sezilarli darajada bog‘liq. Yo‘l harakati qatnashchilari (haydovchilar, piyodalar, yo‘lovchilar); transport vositalari; yo‘l sharoitlari (ko‘chalar va tog‘li yo‘llarning geometrik parametrlari; yo‘lning harakatlanish qismining holati, harakatning intensivligi va tarkibi va boshqalar); harakatni boshqarish uskunalari (belgilar, svetoforlar, to‘siqlar); ob-havo va iqlim sharoitlari (yomg‘ir, tuman, qor, muzlama); ijtimoiy-iqtisodiy omillar (texnika, iqtisodiyot, ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanish darajasi, turmush darajasi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yu.G. Babaskin va I.I. Leonovich, “Texnologiya stroitel'stva dorog” Yangi bilimdge, 2014 yil. “Yo‘l qurilish texnologiyay”. E - Amaliyot. Moskva,INFRA-M,

2. A.G.Ivasenko, va Ya.I. Nikonova, “Innovacionnyj menedzhment Innovatsion menejment”. Moskva: Oliy ta'lim, 2013 yil.

3. A.A.Bezhentsev, “Bezopasnost” dorozhyo‘q dvizheniya “Yo‘l 2017 yil. Yo‘l harakati xavfsizligi”. Elektron darslik. Moskva: Universitet darsligi, INFRA-M,

4. N.A. Kovalenko, "Nauchniye issledovaniya i reshenie inzhenernyh zadach vsfere avtomobil transport" "Tadqiqotva yechimning muhandislik muammolari ichida maydon ning yo'l transport". Elektron ta'limyordam. Moskva: INFRA-M; Minsk: Yangi bilimlar, 2013 yil.

5. Ijtimoiy tarmoqlar va yo'l harakati xavfsizligi. https://www.arrivealive.mobi/socialmedia-and-road-safety

6. V.D.Gerami va A.V.Kolik, "Upravlenie transportlimiltizimi. Transportnoe obespechenie logistika" "Transport tizimlari boshqaruv. Transport logistikasi". O'quv qo'llanma va amaliy ish. Moskva:Yurayt, 2016 yil.

7. Ya.N.Kovalyov, SE Kravchenko, va VK Shumchik, "Dorozhno-stroitel'nye materialyi izdeliya" "Road –buiyotqizish materiallari va mahsulots". E- o'rgatish yordam. Moskva: INFRA-M; Minsk: Yangi Bilim, 2015 yil.

8. "O federal'noj celevoj dastur "Povyshenie bezopasnosti dorozhnogo dvizheniya v 2013 - 2020 godah" "Federal maqsadda" dasturi "Imroving roreklama xavfsizligi" 2013-2020 yillarda. Farmone ningrus Federatsiya Hukumatntning oktyabr 3, 2013 yil, Yo'q. 864. SPS Garant. Mavjud: http://www.garant.ru/products/ipo/prime/ doc/70367076/

9. I.N. Kovalyov, "Teplotexnologiyaskoe obespechen ya'ni kachestva stroitel'stva dorojnyh asfal tobetonnyh pokrytij" "Issiqlik -texnologik sifat kafolat ning yo'l asfalt beton yulka qurilishi". Elektron ta'lim aid. Moskva:INFRA-M; Minsk: Yangi bilimdge, 2015 yil.

10. "Yo'ldaxavfsizlik". Federal 1995 yil 10 dekabrdagi qonun, № 196-FZ (o'zgartirilgan).tomonidanFederal qonunning oktyabr14, 2014 yil,Yo'q. 307-FZ). SPS Garant.Qayta olindidan http://base.garant.ru/10105643/